



NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MART

(2023- yil yanvar-mart)

- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi
- Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
- Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 473,7 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (114,1 %) o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)
O'sish sur'ati (% da)

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq, har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

| | Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i> | Ulushi, <i>% da</i> | O'sish sur'ati, <i>% da</i> |
|------------------------|-------------------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Navoiy viloyati | 2 473,7 | 100,0 | 108,4 |
| Navoiy sh. | 920,5 | 37,2 | 111,8 |
| Zarafshon sh. | 335,2 | 13,5 | 105,8 |
| G'ozg'on sh. | 7,7 | 0,3 | 107,2 |
| Karmana t. | 364,5 | 14,7 | 107,0 |
| Konimex t. | 60,5 | 2,5 | 108,0 |
| Qiziltepa t. | 224,0 | 9,1 | 108,7 |
| Navbahor t. | 140,6 | 5,7 | 104,0 |
| Nurota t. | 105,8 | 4,3 | 105,2 |
| Tomdi t. | 32,2 | 1,3 | 104,4 |
| Uchquduq t. | 83,8 | 3,4 | 105,9 |
| Xatirchi t. | 198,9 | 8,0 | 107,4 |

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-

mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 338,1** ming. so'mga yetdi.

2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,2** % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-mart)

| | Hajmi, ming. so'mda | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|---------------------|----------------------|
| Navoiy viloyati | 2 338,1 | 106,2 |
| Navoiy sh. | 5 878,2 | 107,9 |
| Zarafshon sh. | 3 866,0 | 104,6 |
| G'ozg'on sh. | 845,5 | 106,0 |
| Karmana t. | 2 678,1 | 104,3 |
| Konimex t. | 1 612,7 | 106,0 |
| Qiziltepa t. | 1 404,2 | 106,9 |
| Navbahor t. | 1 181,1 | 102,2 |
| Nurota t. | 1 199,7 | 103,5 |
| Tomdi t. | 2 036,8 | 102,4 |
| Uchquduq t. | 2 139,2 | 104,0 |
| Xatirchi t. | 946,2 | 105,3 |

(yanvar-mart)

2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **462,7** mlrd. soʻmga oshib, **1 401,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **56,7 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **16,4 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror oʻsishiga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini taʼminlashga yordam beradi.

Xizmatlar sohasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar-mart)



Xizmatlar sohasida band boʻlgan kichik tadbirkorlik umumiy hajmining **21,2 %** i yoki **297,2** mlrd. soʻmni Navoiy shahri egallaydi.




■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

| | Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i> | Ulushi, <i>% da</i> | O'sish sur'ati, <i>% da</i> |
|--|-------------------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Xizmatlar – jami | 2 473,7 | 100,0 | 108,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 103,8 | 4,2 | 127,4 |
| Moliyaviy xizmatlar | 600,4 | 24,3 | 127,5 |
| Transport xizmatlari | 377,2 | 15,2 | 101,6 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | 327,7 | 13,2 | 100,8 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 157,9 | 6,4 | 101,7 |
| Savdo xizmatlari | 739,7 | 29,9 | 101,4 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 47,2 | 1,9 | 109,7 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 74,6 | 3,0 | 122,5 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 34,4 | 1,4 | 105,0 |
| Ijara xizmatlari | 31,4 | 1,3 | 87,5 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 39,4 | 1,6 | 100,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 70,6 | 2,9 | 102,4 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 109,8 | 4,4 | 93,3 |
| Boshqa xizmatlar | 87,3 | 3,5 | 112,1 |

(yanvar-mart)




2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **247,1** mlrd. so'mga oshib, **600,4** mlrd. so'mga yetdi. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **24,3** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning jami o'sish sur'ati **127,5** % ni tashkil etdi .

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,9** % ni tashkil etdi.




| Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-mart oylarida, % da) | O'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------|
| Navoiy viloyati | 127,5 |
| Navoiy sh. | 126,5 |
| Zarafshon sh. | 132,9 |
| G'ozg'on sh. | 110,2 |
| Karmana t. | 132,3 |
| Konimex t. | 115,6 |
| Qiziltepa t. | 129,8 |
| Navbahor t. | 124,4 |
| Nurota t. | 124,2 |
| Tomdi t. | 120,1 |
| Uchquduq t. | 121,0 |
| Xatirchi t. | 121,7 |

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyo-satini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(mlrd. so'mda)



(yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi **377,2** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati **101,6 %** ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-aprel holatiga koʻra, tashish va saqlash bilan bogʻliq faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **768** birlikni, yoki xizmat koʻrsatuvchi korxonalarning umumiy sonining **5,2 %** ini tashkil etdi. Ulardan **758** birlik (**98,7 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


Transport xizmatlarining turlari boʻyicha tarkibi (2023- yil yanvar-mart)




Omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari



Quvur



Pochta va kuryerlik xizmatlari





Navoiy viloyati geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Zarafshon shahrida transport xizmatlari hajmi 11,4 mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **50,1** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **114,9** % ni tashkil etdi.

Karmana tumanida ushbu koʻrsatkich **75,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **92,9** % ni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari

(yanvar-mart)

2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-mart** oylarida savdo xizmatlari hajmi **228,9** mlrd. soʻmga oshib, **739,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **101,4 %** ga yetdi.




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023-yil 1-aprel holatiga koʻra xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchi ulushi (**53,5 %** yoki **7 958** birlik) ustunlik qiladi, shundan **99,8 %** (**7 940** birlik) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.


Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)



| Hududlar kesimida | Hududlar kesimida savdo xizmatlari mlrd.so'mda | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|--|----------------------|
| Navoiy viloyati | 739,7 | 101,4 |
| Navoiy sh. | 175,1 | 100,5 |
| Zarafshon sh. | 92,5 | 108,4 |
| G'ozg'on sh. | 0,7 | 103,2 |
| Karmana t. | 128,9 | 101,9 |
| Konimex t. | 22,1 | 112,1 |
| Qiziltepa t. | 90,8 | 104,8 |
| Navbahor t. | 55,5 | 104,3 |
| Nurota t. | 45,6 | 102,5 |
| Tomdi t. | 10,6 | 106,1 |
| Uchquduq t. | 34,3 | 101,9 |
| Xatirchi t. | 83,6 | 107,4 |

(yanvar-mart)



2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **103,8** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **127,4** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **287** birlikka yetdi, shundan **279** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi


(2023- yil yanvar-mart)



(yanvar-mart)

2023- yil yanvar-mart

o'ylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **74,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,5 %** ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-mart o'ylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



2023- yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **34,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4 %** ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **356** birlikni tashkil etdi, shundan **284** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(yanvar-mart)

2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **94,2** mlrd. so'mga oshib, **157,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 308** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 304** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-mart)


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

11,0 %

89,0 %

(yanvar-mart)




2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **47,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,7** % ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ●—● O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



Ijara xizmatlari

(yanvar-mart)



2021- yilning yanvar-martiga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **2,3 mlrd. so'mga** oshib, **2023- yil yanvar-mart** oylarida **31,4 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,3 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-mart** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **78,2 %** ni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imkoniyatlari, shuningdek, iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanish darajasiga, ayniqsa, zamonaviy xizmat turlari (AKTdan foydalangan holda)ga bog'liqdir.

